

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
Moliya va bank ishi kafedrasining navbatdan tashqari № 8 sonli
yig'ilish bayonnomasidan ko'chirma

26.11.2024 yil

Denov shahri.

Qatnashdilar: DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani f.f.b.f.d. (PhD) M.J.Toshboboyev, Institut Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimi G.Eshmurodova, kafedraning barcha professor-o'qituvchilari.

KUN TARTIBI:

Moliyaviy hisob fani o'qituvchisi Z.Shukurovning **“Tayyor mahsulot(tovar, ish – xizmat)lar va ularning sotilishini hisobga olish”** mavzusida ikki soatlik ochiq dars muhokamasi.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan kafedra mudiri O.Melikov so'zga chiqib quyidagi ma'lumotni berdi.

Z.Shukurovning 2024-yil 26- noyabr sanasida Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi 4MM-2023 guruh talabalariga “Moliyaviy hisob” fanidan **“Tayyor mahsulot(tovar, ish – xizmat)lar va ularning sotilishini hisobga olish”** mavzusida ochiq darsi bo'lib o'tdi.

Mazkur ochiq dars tahlilida DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani f.f.b.f.d. (PhD) M.J.Toshboboyev, Institut Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimi G.Eshmurodova, kafedra o'qituvchilaridan Sh. Xudoynazarov, X.Saidov, A.Astanaqulov, M.Xidirovlar ishtirok etdilar. Ochiq darsda Z.Shukurov tomonidan dars mavzusi va rejasi auditoriya taxtasida yozilgan bo'lib, slaydda ham ko'rsatilgan va tematik reja va dasturga muvofiq o'tildi. O'qituvchi qoidaga muvofiq darsni boshladi. Dars jurnallarda qayd etilib, talabalar davomati hisobga olindi. Jahonda va mamlakatimizda bo'layotgan siyosiy voqealar haqida axborot berildi. O'tgan dars yuzasidan talabalar tushunchasi tekshirilib, bugungi ma'ruza bilan bog'liqligi tushuntirildi.

Dars o'tish jarayonida dars maqsadlari aytib o'tildi. Talabalarning bilimi yaxshi, o'qituvchi turli usullar bilan talabalarni o'z ortidan ergashtira oldi. Dars davomida uzilish bo'lib qolmadi. Tarix fani yo'nalishi bo'lganligi uchun dars ham qiziqarli o'yinlar bilan birgalikda olib borildi. Dars vaqtlari rejaning birinchi

qismiga ko'p vaqt sarflandi, darsni mustahkamlash ham talabalar bilan savol-javob tarzida o'tkazildi. Mavzu yuzasidan "Daraxt usuli", "Menga so'z bering", "Aqliy hujum", "Oldindan ko'zlangan xato", "Venn diagrammasi" kabi interfaol metodlardan foydalandi. Shuning uchun ochiq darsni namunali deb baholayman.

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani f.f.b.f.d. (PhD) M.J.Toshboboyev, Institut Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimi G.Eshmurodova, kafedra o'qituvchilaridan Sh.Xudoyenazarov, Z.Shukurov, A.Astanaqulovlar ham o'z fikrlarini bildirdilar.


Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish

Qaror qilindi:

1. Z.Shukurovning **"Tayyor mahsulot(tovar, ish – xizmat)lar va ularning sotilishini hisobga olish"** mavzusidagi ochiq darsi namunali deb baholansin.

Kafedra mudiri:

Yig'ilish kotibi:



O.Melikov



B.Xolmirzayev